



OILA INQIROZINI BARTARAF ETISHDA IJTIMOYIY XODIMNING O'RNI

Qurbonova Umida Kamolovna

SamDu 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada zamonaviy oilaviy transformatsiyalar sharoitida yuzaga keladigan inqirozli holatlarni bartaraf etishda ijtimoiy xodimning o'rni va professional kompetensiyalari tadqiq etiladi. Maqolada tizimli- oilaviy yondashuv va krizisli intervensiya modellarning nazariy tahlili asosida oila barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqot davomida disfunktsional oilalar bilan ishlashning amaliy algoritmi va mediatorlik funksiyasining samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *oila dinamikasi, tizimli ijtimoiy ish, krizisli intervensiya, empowerment, mediatorlik, psixosotsial rehabilitatsiya, disfunktsional tizim, ijtimoiy adaptatsiya.*

Kirish: Oila ijtimoiy tizim sifatida o'zining rivojlanish bosqichlarida muqarrar ravishda turli xil inqirozli davrlarni boshidan kechiradi. Bugungi globallashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik sharoitida oilaviy nizolarning etiologiyasi murakkablashib bormoqda. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya tizimining isloh qilinishi, xususan, "Inson" ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish markazlarning tashkil etilishi oila inqirozlarini boshqarishda professional ijtimoiy ishning institutsional mavqeini yangi bosqichga olib chiqdi. Mening fikrimcha, ijtimoiy xodim bu jarayonda shunchaki kuzatuvchi emas, balki, "o'z –o'ziga yordam berish" mexanizmini ishga tushuruvchi katalizator hisoblanadi. Bu oila inqirozi bu oilaviy tizimning ichki va tashqi o'zgarishlarga moslasha olmasligi natijasida yuzaga keladigan turg'unlik holatidir. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil hamda U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi metodologik asos qilib olinadi. Oila faqat ichki sub'ektlararo munosabatlar majmuasi emas, balki mikrotizim (oila), mezotizim (mahalla, ish) va makrotizim (davlat siyosati o'rtasidagi dialektik) bog'liqlikda tahlil qilinadi.

Ijtimoiy xodimning professional rollari. Inqirozli vaziyatlarda ijtimoiy xodim quyidagi ixtisoslashgan funksiyalarni bajaradi;

Diagnostik funksiya: Oilaviy munosabatlarning "genogrammasi" va "ekokarta" sini tuzish orqali nizolarning latent sabablarini aniqlash.

Klinik-psixosotsial funksiya: Oila a'zolaridagi psixologik travmalarni korreksiya qilish va destruktiv xulq-atvorni o'zgartirish.

Huquqiy himoya funksiya: Ijtimoiy adolat tamoyili asosida oilaning qonuniy manfaatlarini davlat organlari oldida himoya qilish.

Keys-menejment va intervensiya texnologiyasi: Disfunktsional oilalar bilan ishlashda "Empowerment" (imkoniyatlarni kengaytirish) texnologiyasi markaziy o'rin tutadi. Bu



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



yondashuv oilani passiv yordam oluvchidan, o'z muammolarini hal qilishda faol sub'ektga aylantirishni ko'zda tutadi.

Keys tahlili: Ko'p farzandli va ijtimoiy yakkalangan oilalarda nizolar ko'pincha "resurs tanqisligi" fonida yuzaga keladi. Ijtimoiy xodim bunday vaziyatda oilaning ichki zaxiralarini va tashqi ijtimoiy kapitalini sinxronizatsiya qilishi lozim.

Natijalar va muhokama: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy xodim tomonidan amalga oshirilgan kompleks intervensiya ajrimlar sonini 15-20%ga kamaytirish imkonini beradi. Biroq samaradorlikka to'sqinlik qiluvchi asosiy omillar bu aholining ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan past darajadagi ishonchi va kadrlar yetishmovchiligidir.

Oila tushunchasi mutaxassislar nigohida: Sherov Ma'ruf Boltayevich yondashuvi; Ushbu mutaxassisning ilmiy va pedagogik qarashlariga tayanadigan bo'lsak, oilaviy nizolarni hal qilishda tizimli yondashuv ustuvor hisoblanadi. U kishining fikrlaricha:

Oila inqirozi-bu muloqotning uzulishi ijtimoiy xodimning asosiy vazifasi esa "mu zlagan muloqot"ni qayta tiklashdir.

Pedagogik mahorat: Ijtimoiy xodim oila a'zolariga bir-birini eshitish madaniyatini o'rgatishi shart. Bu shunchaki suhbat emas, balki oilaviy qadriyatlarni pedagogic nuqtai nazaridan qayta shakllantirish jarayonidir.

Ota-ona namunasi: Oilada bola uchun kuchli pedagogik qurol –bu ota-onaning shaxsiy namunasi. Bola "eshitganini emas, ko'rganini qiladi va takrorlaydi". Oila mahalla ta'lim muassasasi o'rtasidagi kuchli zanjiri mustahkam bo'lmas ekan, shaxs ijtimoiylashuvida bo'shliqlar yuzaga keladi.

Ma'naviy muhit: Oiladagi sog'lom manaviy-ruhiy muhit bolaning intellektual salohiyatini 50% gacha oshirishi mumkin bo'lgan tabiiy laboratoriyadir. Sherov ijtimoiy xodimning rolini faqat "yarashtiruvchi" sifatida emas, balki oilani jamiyatning boshqa institutlari bilan bog'lovchi coordinator sifatida ko'radi.

Psixologik moslashuv va subyektiv-obyektiv omillari:

M.Abbosova oila inqirozini ikki guruhga bo'ladi:

-Birinchisi moddiy yetishmovchilik ya'ni obyektiv va er-xotinning bir-birini tushunmasligi,

-Ikkinchisi hissiy sovuqlik omili ya'ni psixologik muvofiqlik,

Ajrimlarning asosiy sababiga aylanmoqda. U ijtimoiy xodimning asosiy sifatlaridan biri empatiyani ko'radi.

Uning yondashuviga ko'ra, ijtimoiy xodim oiladagi ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish orqali oiladagi zo'ravonlik va tazyiq holatlarini kamaytirishga erishishi mumkin. Abbosova M. yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ijtimoiy xodimning ta'lim muassasalari bilan hamkorligini muhim deb hisoblaydi. Dotsent inqirozdagi oilalar bilan ishlashda "Individual traektoriya" medotini ustuvor deb biladi. Bunda ijtimoiy xodim har bir oila a'zosining ruhiy holatiga mos "yumshoq kuch" usulni qollaydi. Ayollar va bolalarning ijtimoiy adaptatsiyasiga alohida urg'u beradi. Nizolarni boshqarishda "empatik tinglash" texnologiyasini joriy etadi. Faqatgina moddiy yordam berish bilan oilani saqlab qolib



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



bo'lmaydi. Ijtimoiy xodim nafaqat yordam beruvchi, balki “hayotiy ko'nikmalarni o'rgatuvchi muallim” sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda asosiy maqsad inqirozni shunchaki bartaraf etish emas, balki oilani o'z-o'zini tiklash darajasiga olib chiqishdir.

Xulosa: Oila inqirozlarini bartaraf etishda ijtimoiy xodim bu barqarorlikni strategik menejeridir. Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, professional ijtimoiy ish tizimini rivojlantirish uchun oilaviy mediatsiya to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish va ijtimoiy xodimlarning superviziya tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Oilani davlat va jamiyat bilan bog'lovchi ko'priklarni bo'lishidan iborat. Muvaffaqiyatli intervensiya natijasida oila nafaqat muammodan qutuladi, balki kelajakdagi inqirozlarga nisbatan “immunitet” hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni “Ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy-yordam to'g'risidagi”. 2023-yil
2. Payne, M. (2014). *Modern Social Work Theory*. 4th edition. Polgrave Macmillan.
3. G'aniyeva, M. X. (2021). *Ijtimoiy ish metodikasi*. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo.
4. Satir, V. (1988). *The New Peoplemaking*. (Oilaviy terapiya va muloqot san'ati bo'yicha klassik asar).
5. Oila inqirozi to'g'risidagi maqolalar. (Sherov Ma'ruf Boltayevich va Abbosova Maftuna Subhonovna).